QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2023-yil*

*yanvar-sentabr*



# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI

*2023-yil 1-oktabr holatiga, dastlabki ma’lumotlar*

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yil 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni **1 994,4** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **18,2** ming kishiga yoki **0,9 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **974,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **48,8** %), qishloq aholisi soni **1 020,2** ming kishi (**51,2** %)ni tashkil etdi.

## Doimiy aholi soni

**1 994,4** *ming kishi*

## Tabiiy o‘sish

**+24,5** *ming kishi*

## Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

### Shahar



**48,8 %**

### Qishloq



**51,2 %**

## Aholining tabiiy harakati

**(yanvar- sentabr holatiga)**

| | kishi | | *o‘sish, kamayish (+,-)* | har 1000 kishiga nisbatan promille | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 2022 y. | 2023 y. | | 2022 y. | 2023 y. |
| Tug‘ilganlar | 30 833 | 32 336 | 1 503 | 21,0 | 21,8 |
| O‘lganlar | 7 143 | 7 836 | 693 | 4,9 | 5,3 |
| Tabiiy o‘sish | 23 690 | 24 500 | 810 | 16,1 | 16,5 |
| Nikohlar | 10 899 | 9 638 | -1 261 | 7,4 | 6,5 |
| Ajralishlar | 1 554 | 1 552 | -2 | 1,1 | 1,0 |

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar

*2023-yil yanvar-sentabr*




## Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni

*2023-yil 1-oktabr holatiga*




2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi soningin **30,9** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,7** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,4** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi

*2023-yil 1-yanvar holatiga*




2023-yil 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **101,4 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib **31,9 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 0-4 yoshli bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **95,7 ming kishini** tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya’ni **36,9 ming kishini** tashkil etgan.

## Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

*2023-yil 1-yanvar holatiga*




2023-yilning 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **72,9** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **70,6** yoshga, ayollar uchun esa **75,1** yoshga teng. Shahar joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **70,5** yoshni, qishloq joylar uchun **75,4** yoshni tashkil etgan.

## Doimiy aholi soninig taqsimlanishi

*2023- yil 1-oktabr holatiga*

**Erkaklar**

**50,2 %**

**1 001,7** *ming kishi*

**Ayollar**

**49,8 %**

**992,7** *ming kishi*

---

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni

*(1-oktabr holatiga ming kishi)*

| | 2022-yil | 2023-yil | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **1 970,6** | **1 994,4** | **101,2** |
| Nukus sh. | 333,4 | 337,6 | 101,3 |
| tumanlar: | | | |
| Amudaryo | 207,5 | 211,1 | 101,7 |
| Beruniy | 200,2 | 204,0 | 101,9 |
| Bo‘zatov | 21,9 | 21,9 | 100,0 |
| Qorao‘zak | 54,0 | 54,3 | 100,6 |
| Kegeyli | 74,0 | 74,6 | 100,8 |
| Qo‘ng‘irot | 134,1 | 135,5 | 101,0 |
| Qonliko‘l | 52,8 | 53,6 | 101,5 |
| Mo‘ynoq | 33,4 | 33,6 | 100,6 |
| Nukus | 52,6 | 53,5 | 101,7 |
| Taxiatosh | 76,1 | 76,6 | 100,7 |
| Taxtako‘pir | 40,8 | 38,8 | 95,1 |
| To‘rtko‘l | 223,7 | 227,7 | 101,8 |
| Xo‘jayli | 126,9 | 128,2 | 101,0 |
| Chimboy | 114,8 | 115,4 | 100,5 |
| Shumanay | 57,5 | 57,9 | 100,7 |
| Ellikqal’a | 166,9 | 170,1 | 101,9 |

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi

*1-oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi*

| | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **11,8** | **12,0** |
| Nukus sh. | 1 508,9 | 1 527,9 |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 203,2 | 206,7 |
| Beruniy | 50,7 | 51,6 |
| Bo‘zatov | 10,7 | 10,7 |
| Qorao‘zak | 9,2 | 9,2 |
| Kegeyli | 80,4 | 81,1 |
| Qo‘ng‘irot | 1,8 | 1,8 |
| Qonliko‘l | 71,0 | 72,0 |
| Mo‘ynoq | 0,9 | 0,9 |
| Nukus | 55,7 | 56,7 |
| Taxiatosh | 428,4 | 431,3 |
| Taxtako‘pir | 1,9 | 1,8 |
| To‘rtko‘l | 29,9 | 30,4 |
| Xo‘jayli | 230,3 | 232,7 |
| Chimboy | 79,7 | 80,1 |
| Shumanay | 73,5 | 74,0 |
| Ellikqal’a | 30,8 | 31,4 |

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yil 1-oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **12,0** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2** kishiga ortgan (2022-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga **11,8** kishi).

Tumanlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahrida 1 527,9 kishi, Taxiatosh tumanida 431,3 kishi, Xo‘jayli tumanida 232,7 kishi, Amudaryo tumanida 206,7 kishi, Kegeyli tumanida 81,1 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Qorao‘zak tumanida 9,2 kishi, Qo‘ng‘irot tumanida 1,8 kishi, Taxtako‘pir tumanida 1,8 kishi, Mo‘ynoq tumanida 0,9 kishini tashkil etgan.

# QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

## (yanvar-sentabr holatiga)




## Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

*2023-yil yanvar-sentabr, kishi*

| | Tug‘ilganlar soni | koeffitsiyenti |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **32 336** | **21,8 ‰** |
| Nukus sh. | 5141 | 20,5 ‰ |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 3 770 | 24,0 ‰ |
| Beruniy | 3 830 | 25,3 ‰ |
| Bo‘zatov | 282 | 17,2 ‰ |
| Qorao‘zak | 737 | 18,2 ‰ |
| Kegeyli | 1 044 | 18,8 ‰ |
| Qo‘ng‘irot | 2 126 | 21,0 ‰ |
| Qonliko‘l | 857 | 21,5 ‰ |
| Mo‘ynoq | 457 | 18,2 ‰ |
| Nukus | 1 032 | 25,9 ‰ |
| Taxiatosh | 976 | 17,1 ‰ |
| Taxtako‘pir | 525 | 18,1 ‰ |
| To‘rtko‘l | 3 838 | 22,7 ‰ |
| Xo‘jayli | 2 045 | 21,4 ‰ |
| Chimboy | 1 724 | 20,0 ‰ |
| Shumanay | 731 | 16,9 ‰ |
| Ellikqal’a | 3221 | 25,5 ‰ |

## Tug‘ilganlarning taqsimlanishi

### Yanvar- mart

O‘g‘il bolalar **5 061** — Qiz bolalar **4 716**



**51,8 %** — **48,2 %**

### Yanvar- iyun

O‘g‘il bolalar **10 108** — Qiz bolalar **9 358**



**51,9 %** — **48,1 %**

### Yanvar- sentabr

O‘g‘il bolalar **16 726** — Qiz bolalar **15 610**



**51,7 %** — **48,3 %**



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **32,3** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **21,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **0,8** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida **21,0** promilleni tashkil etgan).

## Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

*2023-yil yanvar-sentabr*

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug’ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:



**3 nafar va undan ortiq egizak**
**18 ta**

**1 nafar**
**31 602 ta**

**2 nafar egizak**
**716 ta**

- 1 nafar – **97,7** %
- 2 nafar – **2,2** %
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1** %

## Chaqaloqlarning ota-onasi yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

### Otaning yoshi

**8,0 %**
40 yosh va undan kattalar

**80,1 %**
25-39 yoshdagilar

**11,9 %**
25 yoshgacha



### Onaning yoshi

**1,9 %**
40 yosh va undan kattalar

**67,8 %**
25-39 yoshdagilar

**30,3 %**
25 yoshgacha

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **11,9** % chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **80,1** % ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **8,0** % chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **30,3** % chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **67,8** % ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,9** % chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

## VAFOT ETGANLAR

### (yanvar-sentabr holatiga)




### Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

*2023-yil yanvar-sentabr, kishi*

| | Vafot etganlar | koeffitsiyenti |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **7 836** | **5,3 ‰** |
| Nukus sh. | 1 232 | 4,9 ‰ |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 813 | 5,2 ‰ |
| Beruniy | 676 | 4,5 ‰ |
| Bo‘zatov | 69 | 4,2 ‰ |
| Qorao‘zak | 315 | 7,8 ‰ |
| Kegeyli | 300 | 5,4 ‰ |
| Qo‘ng‘irot | 531 | 5,3 ‰ |
| Qonliko‘l | 184 | 4,6 ‰ |
| Mo‘ynoq | 158 | 6,3 ‰ |
| Nukus | 262 | 6,6 ‰ |
| Taxiatosh | 283 | 5,0 ‰ |
| Taxtako‘pir | 276 | 9,5 ‰ |
| To‘rtko‘l | 763 | 4,5 ‰ |
| Xo‘jayli | 416 | 4,4 ‰ |
| Chimboy | 698 | 8,1 ‰ |
| Shumanay | 253 | 5,9 ‰ |
| Ellikqal’a | 607 | 4,8 ‰ |

### Vafot etganlarning taqsimlanishi

**Yanvar-mart**

Erkaklar **1 277** — Ayollar **1 071**



**54,4 %** — **45,6 %**

**Yanvar-iyun**

Erkaklar **2 687** — Ayollar **2 184**



**55,2 %** — **44,8 %**

**Yanvar-sentabr**

Erkaklar **4 345** — Ayollar **3 491**



**55,4 %** — **44,6 %**



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **7,8** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **5,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **0,4** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida **4,9** promille bo‘lgan).

## O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

*2023-yil yanvar-sentabr, kishi*




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **56,5 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **10,3 %** i – o‘simtalardan, **5,6** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **5,6 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,3 %** i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **0,9** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **17,8 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

*2023-yil yanvar-sentabr*




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **16,1** % ni, 20-59 yoshlar orasida **35,7** % ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **48,2** % ni tashkil etgan.

## QAYD ETILGAN NIKOHLAR
## (yanvar-sentabr holatiga)




## Nikohlarning taqsimlanishi

### Yanvar- mart

shahar 1 524 — qishloq 2 118

41,8 % — 58,2 %

### Yanvar-iyun

shahar 2 880 — qishloq 3 486

45,2 % — 54,8 %

### Yanvar-sentabr

shahar 4 461 — qishloq 5 177

46,3 % — 53,7

## Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

*2023-yil yanvar-sentabr, birlik*

| | nikohlar | koeffitsiyenti |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **9 638** | **6,5 ‰** |
| Nukus sh. | 1 590 | 6,3 ‰ |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 1 121 | 7,1 ‰ |
| Beruniy | 1 055 | 7,0 ‰ |
| Bo‘zatov | 74 | 4,5 ‰ |
| Qorao‘zak | 229 | 5,6 ‰ |
| Kegeyli | 330 | 5,9 ‰ |
| Qo‘ng‘irot | 695 | 6,9 ‰ |
| Qonliko‘l | 238 | 6,0 ‰ |
| Mo‘ynoq | 111 | 4,4 ‰ |
| Nukus | 271 | 6,8 ‰ |
| Taxiatosh | 313 | 5,5 ‰ |
| Taxtako‘pir | 193 | 6,6 ‰ |
| To‘rtko‘l | 1234 | 7,3 ‰ |
| Xo‘jayli | 615 | 6,4 ‰ |
| Chimboy | 481 | 5,6 ‰ |
| Shumanay | 209 | 4,8 ‰ |
| Ellikqal’a | 879 | 7,0 ‰ |

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **6,4** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **-0,9** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida **7,4** promille bo‘lgan).

# NIKOHDAN AJRALISHLAR

## (yanvar-sentabr holatiga)




## Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

*2023-yil yanvar-sentabr, birlik*

| | nikohdan ajralishlar | koeffitsiyenti |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **1 552** | **1,0 ‰** |
| Nukus sh. | 302 | 1,2 ‰ |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 118 | 0,8 ‰ |
| Beruniy | 173 | 1,1 ‰ |
| Bo‘zatov | 13 | 0,8 ‰ |
| Qorao‘zak | 48 | 1,2 ‰ |
| Kegeyli | 64 | 1,1 ‰ |
| Qo‘ng‘irot | 137 | 1,4 ‰ |
| Qonliko‘l | 39 | 1,0 ‰ |
| Mo‘ynoq | 20 | 0,8 ‰ |
| Nukus | 41 | 1,0 ‰ |
| Taxiatosh | 58 | 1,0 ‰ |
| Taxtako‘pir | 37 | 1,3 ‰ |
| To‘rtko‘l | 139 | 0,8 ‰ |
| Xo‘jayli | 108 | 1,1 ‰ |
| Chimboy | 97 | 1,1 ‰ |
| Shumanay | 37 | 0,9 ‰ |
| Ellikqal’a | 121 | 1,0 ‰ |

## Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

### Yanvar- mart

shahar **354**



qishloq **212**



**62,5 %** **37,5 %**

### Yanvar -iyun

shahar **650**



qishloq **405**



**61,6 %** **38,4 %**

### Yanvar -sentabr

shahar **936**



qishloq **616**



**60,3 %** **39,7 %**



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **1,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **-0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida **1,1** promille bo‘lgan).

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

*2023-yil yanvar-sentabr*




Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida jami nikohdan ajrashganlarning **28,2** % i farzandsiz, **39,2** % i bitta farzand bilan va **32,6** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

---

## Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti




Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha nikohdan ajrashganlarning 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **1 552** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan.

# AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)*

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 6 473 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 12 818 kishini, migratsiya saldosi minus 6 345 kishini tashkil etdi. (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida minus 1 559 kishini tashkil etgan).

## Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

*(kishi)*

| | 2022-yil yanvar-sentabr | | | 2023-yil yanvar-sentabr | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Ko‘chib kelganlar | Ko‘chib ketganlar | Migratsiya saldosi | Ko‘chib kelganlar | Ko‘chib ketganlar | Migratsiya saldosi |
| Nukus sh. | 2 210 | 1 555 | 655 | 2 125 | 3 000 | -875 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Amudaryo | 177 | 443 | -266 | 231 | 640 | -409 |
| Beruniy | 181 | 297 | -116 | 237 | 537 | -300 |
| Bo‘zatov | 63 | 213 | -150 | 81 | 291 | -210 |
| Qorao‘zak | 173 | 274 | -101 | 158 | 402 | -244 |
| Kegeyli | 225 | 464 | -239 | 287 | 613 | -326 |
| Qo‘ng‘irot | 320 | 437 | -117 | 356 | 1029 | -673 |
| Qonliko‘l | 207 | 356 | -149 | 196 | 366 | -170 |
| Mo‘ynoq | 153 | 145 | 8 | 146 | 322 | -176 |
| Nukus | 437 | 444 | -7 | 550 | 688 | -138 |
| Taxiatosh | 274 | 367 | -93 | 288 | 677 | -389 |
| Taxtako‘pir | 93 | 237 | -144 | 148 | 608 | -460 |
| To‘rtko‘l | 287 | 409 | -122 | 336 | 474 | -138 |
| Xo‘jayli | 454 | 591 | -137 | 505 | 1205 | -700 |
| Chimboy | 306 | 681 | -375 | 359 | 1034 | -675 |
| Shumanay | 226 | 306 | -80 | 207 | 390 | -183 |
| Ellikqal’a | 241 | 367 | -126 | 263 | 542 | -279 |

## JAMI KO‘CHIB KELGANLAR
## (yanvar-sentabr holatiga)




### Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni
*2023-yil yanvar-sentabr, kishi*

| | Ko‘chib kelganlar | shundan: | |
|---|---|---|---|
| | | Respublikaning boshqa hududlaridan | Xorijiy mamlakatlardan |
| Nukus sh. | 2 125 | 2107 | 18 |
| tumanlar: | | | |
| Amudaryo | 231 | 222 | 9 |
| Beruniy | 237 | 230 | 7 |
| Bo‘zatov | 81 | 81 | 0 |
| Qorao‘zak | 158 | 155 | 3 |
| Kegeyli | 287 | 282 | 5 |
| Qo‘ng‘irot | 356 | 335 | 21 |
| Qonliko‘l | 196 | 194 | 2 |
| Mo‘ynoq | 146 | 145 | 1 |
| Nukus | 550 | 531 | 19 |
| Taxiatosh | 288 | 276 | 12 |
| Taxtako‘pir | 148 | 132 | 16 |
| To‘rtko‘l | 336 | 322 | 14 |
| Xo‘jayli | 505 | 490 | 15 |
| Chimboy | 359 | 357 | 2 |
| Shumanay | 207 | 200 | 7 |
| Ellikqal’a | 263 | 263 | 0 |

### Ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi

**Yanvar-mart**

Erkaklar **680** — Ayollar **1 492**



**31,3%** — **68,7%**

**Yanvar -iyun**

Erkaklar **1 368** — Ayollar **2 850**



**32,4%** — **67,6%**

**Yanvar sentabr**

Erkaklar **2 112** — Ayollar **4 361**



**32,6%** — **67,4%**



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **6,5** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mosdavriga nisbatan **0,3** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida **4,1** promille bo‘lgan).

## JAMI KO‘CHIB KETGANLAR

**(yanvar-sentabr holatiga)**




## Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib ketganlar soni

*2023- yil yanvar-sentabr, kishi*

| | Ko‘chib ketganlar | shundan: | |
|---|---|---|---|
| | | Respublika ning boshqa hududlariga | Xorijiy mamla-katlarga |
| Nukus sh. | 3 000 | 1 681 | 1 319 |
| tumanlar: | | | |
| Amudaryo | 640 | 475 | 165 |
| Beruniy | 537 | 252 | 285 |
| Bo‘zatov | 291 | 130 | 161 |
| Qorao‘zak | 402 | 235 | 167 |
| Kegeyli | 613 | 404 | 209 |
| Qo‘ng‘irot | 1029 | 363 | 666 |
| Qonliko‘l | 366 | 295 | 71 |
| Mo‘ynoq | 322 | 128 | 194 |
| Nukus | 688 | 436 | 252 |
| Taxiatosh | 677 | 285 | 392 |
| Taxtako‘pir | 608 | 140 | 468 |
| To‘rtko‘l | 474 | 340 | 134 |
| Xo‘jayli | 1205 | 476 | 729 |
| Chimboy | 1034 | 547 | 487 |
| Shumanay | 390 | 289 | 101 |
| Ellikqal’a | 542 | 372 | 170 |

## Ko‘chib ketganlarning taqsimlanishi

### Yanvar-mart

**Erkaklar** **1 815**

**Ayollar** **2 292**



**44,2 %** **55,8 %**

### Yanvar-iyun

**Erkaklar** **3 541**

**Ayollar** **4 670**



**43,1 %** **56,9 %**

### Yanvar-sentabr

**Erkaklar** **5 387**

**Ayollar** **7 431**



**42,0 %** **58,0 %**



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **12,8** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **8,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **3,4** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida **5,2** promille bo‘lgan).

## Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

*2023-yil yanvar-sentabr*




Qoraqalpog‘iston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasidan **131** kishi, Rossiya Federatsiyasidan **7** kishi, Tojikiston Respublikasidan **1** kishi, Turkmaniston Respublikasidan **10** kishi va boshqa mamlakatlardan **2** kishi kelgan.

## Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

*2023-yil yanvar-sentabr*




Qoraqalpog‘iston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasiga **5 917** kishi, Rossiya Federatsiyasiga **37** kishi, Qirg‘iziston Respublikasiga **6** kishi, Turkmaniston Respublikasiga **5** kishi va boshqa mamlakatlarga **5** kishi ketgan.

## Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi –** ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**
*Tel: 61 222-76-57*